

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА МЕДИАТА'ЛIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15093016>

**Zikirova Gulfira Zokirovna**

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti*

*Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi*

*2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: Raxmonova Zarifa Ne'matovna*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.*

## PEDAGOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING MEDIA EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

#### **Annotatsiya**

Mediata'lim mактабгача ta'lim jarayonida bolalarning axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda media vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada mediata'limni mактабгача ta'lim tizimida joriy etishning pedagogik jihatlari, ya'ni metodik yondashuvlar, texnologiyalar va pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, mediata'lim vositalaridan foydalanishning yoshga mos xususiyatlari va tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar keltiriladi.

#### **Annotation**

Media education plays an important role in shaping children's conscious attitude toward information, developing their creative thinking, and teaching them effective skills for using media tools in the preschool education process. This article analyzes the pedagogical aspects of implementing media education in the preschool education system, including methodological approaches, technologies, and pedagogical strategies. Additionally, age-appropriate features of using media tools and methodological recommendations for educators are provided.

#### **Аннотация**

Медиаобразование играет важную роль в формировании осознанного отношения детей к информации, развитии их креативного мышления и обучении эффективным навыкам использования медиасредств в процессе дошкольного образования. В данной статье анализируются педагогические

асpekty vnedreniya mediaobrazovaniya v sistemuyu doshkol'nogo obrazovaniya, vkluchay metodicheskie podkhody, tekhnologii i pedagogicheskie strategii. Krome togo, рассmatryvayutsya vozrastnye osobennosti ispolzovaniya mediاسредств i privodiyutsya metodicheskie rekomenyatsii dlya vospitatelyeй.

### Kalit so'zlar

Mediata'lism, maktabgacha ta'lism, pedagogik yondashuv, media vositalar, axborot madaniyati, kreativ fikrlash, metodik tavsiyalar, ta'lism texnologiyalari.

### Keywords

Media education, preschool education, pedagogical approach, media tools, information culture, creative thinking, methodological recommendations, educational technologies.

### Ключевые слова

Медиаобразование, дошкольное образование, педагогический подход, медиасредства, информационная культура, креативное мышление, методические рекомендации, образовательные технологии.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lism jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lism bosqichida bolalarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mediata'lism - bu bolalarni media vositalaridan ongli va samarali foydalanishga o'rgatish jarayoni bo'lib, u pedagogika oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lism jarayonida mediata'lismni tashkil etish pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqilishi, zamonaviy ta'limda yangi texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini hisobga olgan holda, bolalarning rivojlanishida mediata'lismning o'rni va rolini aniqlashni talab qiladi. Bu muammo nazariy va amaliy jihatlarni o'zida mujassam qilgan. Mediata'lismning maktabgacha ta'limda ahamiyati, pedagogik jihatlari va ularning manbalari tahliliy asosda ko'rib chiqilishi kerak.

Mediata'lismning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Xususan, ularni shunday tasniflash mumkin:

-Bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish: Mediata'lism orqali bolalar yangi bilimlarni o'rganish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishadilar.

-Zamonaviy texnologiyalarga moslashish: Bolalar erta yoshdan boshlab raqamlı texnologiyalar bilan tanishib, ularni qo'llashni o'rganishadilar.

-Ta'limgarayonini qiziqarli qilish: Multimedia vositalari, xususan, videolar, interfaol dasturlar, ilovalar orqali ta'limgarayoni bolalar uchun qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin.

Mediata'limgarayonini tashkil etishning pedagogik jihatlarini shunday tasnif mumkin.  
**Jumladan:**

-Mediata'limgarayonini tashkil etish metodikasining yetishmasligi va rivojlanmaganligi: Maktabgacha ta'limgarayonini qanday qo'llash haqida aniq metodik tavsiyalar va dasturlarning yetishmasligi.

-Bolalarning sog'lig'iga ta'siri: Ko'p vaqt davomida ekran oldida bo'lish bolalarning ko'z sog'lig'iga, jismoniy faolligining kamayishiga va psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

-Ota-onalar va o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasi: Mediata'limgarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar va ota-onalarning texnologik savodxonligi yetarli bo'lishi talab etiladi.

-Resurslar yetishmasligi: Maktabgacha ta'limgarayonini muassasalarida zarur texnik vositalari, xususan, kompyuterlar, interfaol doskalar, internet yetishmasligi.

-Kontentni tanlash muammosi: Bolalar uchun mos va sifatli mediakontentni tanlash va ularni yosh xususiyatlariga moslashtirish qiyinchiligi mavjuddir.

Maktabgacha ta'limgarayonini tashkil etishda kelib chiqadigan muammolarning yechimlari va tavsiyalar.

-Mediata'limgarayonini muvozanatlari tashkil etish: Bolalarning ekran vaqtini cheklash, jismoniy faollik va ijodiy faoliyat bilan muvozanatlashtirish kerak bo'ladi.

-O'qituvchilarini qayta tayyorlash: Mediata'limgarayonini qo'llash bo'yicha o'qituvchilarini malakasini oshirish va ularga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish kerak bo'ladi.

-Sifatli mediakontentni tanlash: Bolalar uchun pedagogik jihatdan to'g'ri tanlangan va yosh xususiyatlariga mos keladigan mediakontentni ishlab chiqish kerak.

-Ota-onalar bilan hamkorlik qilish: Ota-onalarni mediata'limgarayonini ahamiyati va xavflari haqida bilimga ega qilish talab etiladi.

Mediata'limgarayonini maktabgacha ta'limgarayonida samarali tashkil etish uchun yuqoridagi muammolarni hal qilish va nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayon bolalarning aqliy salohiyatining rivojlanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni zamonaviy dunyoga tayyorlaydi.

Mediata'limgarayonini - bu ta'limgarayonida turli media vositalaridan foydalanish, bolalarni tanqidiy fikrlashga, axborotni to'g'ri qabul qilishga va mustaqil tahlil

qilishga o'rgatish faoliyati hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mediata'lim quyidagi jihatlarga ega bo'lishi kerak, jumladan:

- Axborotning to'g'ri tushunilishi va tahlil qilinishi;
- Multimediali vositalar yordamida ta'lim samaradorligi oshirilishi;
- Media resurslar orqali bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish kabilar.

Mediata'limni maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etish o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shu bois, Mediata'limning maktabgacha ta'limda samarali tashkil etilishi uchun bir qator muammolarni bartaraf qilish talab etiladi, xususan:

Pedagoglarning tayyorgarligini ta'minlash – tarbiyachilar va pedagoglar media vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha yetar darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Texnik ta'minot yetishmovchiligini bartaraf qilish – ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy media vositalari va internet resurslariga to'laqonli ega bo'lish imkoniyati cheklangan, u muammolarni vaqtida bartaraf qilish zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish – maktabgacha yoshdagi bolalar ekran oldida uzoq vaqt turib qolishi ularning salomatligiga zarar yetkazishi mumkin, bunday muammolarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Axborot xavfsizligini ta'minlash – bolalarni zararli kontentlardan himoya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi va kontentlarni saralashga jiddiy e'tibor berish lozim.

Hozirgi davrda dunyoning turli mamlakatlarida maktabgacha ta'limda mediata'limni joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalar mavjud va rivojlangan bo'lib, ular:

-Finlandiya – Maktabgacha yoshdagi bolalarga interaktiv ta'lim berish maqsadida maxsus media savodxonligi dasturlari ishlab chiqilgan. Bolalar multimedia ilovalari yordamida axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga o'rgatiladi.

-AQSh – Mediya vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, Sesame Street kabi ta'limiy dasturlar bolalarning media orqali ta'lim olishiga xizmat qiladi.

-Buyuk Britaniya – Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga media etikasi, raqamli xavfsizlik va axborotni tanqidiy baholash bo'yicha dasturlar taklif etiladi.

-Germaniya – Bolalar bog'chalarida texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maxsus o'quv kurslari mavjud bo'lib, bolalarga media orqali ijodiy fikrlash va axborotni boshqarish o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lismizda mediata'limni Mediata'limni joriy etish borasida takliflar mavjuddir. Mediata'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan:

-Pedagoglarning malakasini oshirish - media texnologiyalar va ularning ta'lismizda qo'llanilishi bo'yicha muntazam seminar - treninglar va kurslar tashkil etilishi lozim.

-Ta'lismizda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish - ta'lismizda interaktiv doskalar, audio va video materiallardan foydalanish zarur.

-Kontentlar bo'yicha bolalar uchun xavfsiz media muhit yaratish - bolalarga mo'ljalangan ta'lismizda platformalari va ilovalarini kengaytirib, rivojlantirish va ulardan foydalanishni targ'ib qilish kerak.

-Oilalar bilan hamkorlik qilish - ota-onalarni mediata'lim jarayoniga jalb qilish va ularga farzandlarining mediata'lim vositalari bilan to'g'ri ishlashlarini doimo nazorat qilib borishni o'rgatish kerak.

Jahon amaliyotida mediata'lim maktabgacha ta'lismizda jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Uni to'g'ri tashkil etish ta'lismizda sifatiga va bolalarning aqliy jihatdan rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan o'rjanilgan innovatsion yondashuvlar milliy ta'lismizda moslashtirilishi va qo'llanilishi lozim. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar hamkorligida media vositalaridan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mediata'limning asosiy pedagogik muammolari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topadi, jumladan:

Maktabgacha ta'lismizda tashkilotidagi ilk yoshdagagi bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ommaviy axborot vositalarining ta'siri kuzatiladi.

Bolalarni ongli ommaviy axborot vositalari foydalanuvchilari etib tarbiyalashning maqbul usullarini aniqlash talab etiladi.

Raqamli savodxonlikning bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalaridan qanday qilib pedagogik jihatdan samarali va xavfsiz foydalanish mumkinligi asoslanishi kerak.

Media ta'lismizda nazariy asoslari. Media ta'limi turli xil ta'lismizda psixologiya nazariyalariga asoslanadi.

Media savodxonlik nazariyasi Len Masterman, Devid Bekingem, Aleksandr Fyodorov tomonidan o'rtaga tashlangan va davriy jihatdan takomillashtirilgan ta'limatot hisoblanadi. Xususan, ular, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy ko'rib chiqish kerakligini qayd qiladi. Shuningdek, ular bolalarni passiv media iste'molchilari bo'lishga emas, balki, faol media foydalanuvchilari bo'lishga undaydi. Shuning uchun Media savodxonligi (media literacy) sohasida Len

Masterman, David Buckingham va Aleksandr Fyodorov kabi olimlarning nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlar media savodxonligini rivojlantirish, uning ahamiyati va o'qitish usullari haqida keng qamrovli fikrlar bildirganlar. Quyida ularning nazariyalarining asosiy jihatlari keltirilgan:

Len Masterman. Len Masterman media savodxonligi sohasida asoschilardan biri hisoblanadi. Uning nazariyasi media savodxonligini tanqidiy tahlil qilish va mediadan foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. L.Mastermanning fikricha, media savodxonligi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'ladi:

-Media xabarlari tuzilganligi: Media xabarlari tabiiy emas, balki muayyan maqsadlar uchun tuzilganligini to'g'ri tushunish kerak.

-Media tilini tushunish: Media xabarlarining qanday usullar bilan ta'sir o'tkazishini tushunish zarur.

-Auditoriya faolligi: Media xabarlarini passiv qabul qilish o'rniga, ularni tanqidiy tahlil qilish va ularga faol munosabatda bo'lish kerak.

-Media ta'sirini tushunish: Media xabarlarining jamiyat va shaxsga ta'sirini tushunish talab etiladi.

S.Masterman media savodxonligini o'qitishda o'qituvchilar roliga alohida e'tibor qaratadi va ularning media xabarlarini tanqidiy tahlil qilish qibiliyatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

David Buckingham. David Buckingham media savodxonligini zamonaviy sharoitda, ayniqsa raqamli media va internet davrida o'rganishga katta hissa qo'shgan. Uning ta'limoti quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

□ Media ishlab chiqarish va iste'mol: D.Buckingham media savodxonligini faqat xabarlarni tushunish emas, balki ularni ishlab chiqarish jarayonini ham o'zlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

□ Media va identifikasiya: Uning fikricha, media yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

□ Media va demokratiya: D.Buckingham media savodxonligini demokratik jamiyat uchun muhim deb biladi, chunki u kishilarni media xabarlarini tanqidiy baholashga o'rgatadi.

□ Raqamli media savodxonligi: U raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan media savodxonligi yangi shakllarni olishini ma'lum qiladi.

D.Buckinghamning fikricha, media savodxonligi dasturlari yoshlarni faqat media xabarlarini tushunishga emas, balki ularni yaratishga va ularga munosabatda bo'lishga ham o'rgatishi kerak.

Aleksandr Fyodorov. Aleksandr Fyodorov media savodxonligi sohasida, ayniqsa Rossiya va MDH davlatlarida keng tadqiqotlar olib borgan olim hisoblanadi. Uning nazariyasi quyidagi jihatlarga e'tibor qaratgan:

- Media savodxonligi va ta'limga A.Fyodorov media savodxonligini mifik maktab va oliy ta'limga dasturlariga kiritish zarurligini ma'lum qiladi.
- Media xabarlarini tanqidiy tahlil qilish: U media xabarlarini tanqidiy baholash, ularning maqsadlari va ta'sirini tushunishni muhim deb biladi.
- Media va madaniyat: A.Fyodorov media savodxonligini madaniy jihatdan muhim deb hisoblaydi, chunki u turli madaniyatlarning media ifodasini tushunishga yordam beradi.
- Media savodxonligi dasturlarini rivojlantirish: U media savodxonligi dasturlarini ishlab chiqish va ularni joriy etishda xalqaro tajribalardan foydalanishni tavsiya qiladi.

A.Fyodorovning fikricha, media savodxonligi shaxslarni manipulyatsiyadan himoya qilish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash uchun muhim hisoblanadi.

Len Masterman, David Buckingham va Aleksandr Fyodorovning media savodxonligi to'g'risidagi nazariyalari umuman bir-birini to'ldiradi. L.Masterman media xabarlarini tanqidiy tahlil qilishga urg'u bersa, D.Buckingham raqamli media va identifikasiya masalalarini ko'rib chiqsa, A.Fyodorov esa media savodxonligini ta'limga tizimiga kiritish va madaniy jihatlarni o'rganishni muhim deb biladi. Ushbu nazariy ta'limgotlar media savodxonligini rivojlantirish va uni o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xalikova U.M. Maktabgacha ta'limga pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O'quv qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi "FAN VA TA'LIM" nashriyoti 2022. 216 b.
2. Nizomova Sh. Sh. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - Buxoro : Fan va ta'limga, 2022. -176 b.
3. Buckingham, D. (2003). Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Polity Press.
4. Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin Press.
5. Potter, W. J. (2018). Media Literacy. SAGE Publications.
6. Wilson, C., Grizzle, A., Tuazon, R., Akyempong, K., & Cheung, C. K. (2011). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. UNESCO.
7. Федоров, А. В. (2016). Медиаобразование и медиаграмотность: учебное пособие. МОО "Информация для всех". Таганрог: Изд-во Кучма, 2016. 340 с.

8. Короченский, А. П. (2017). Медиаобразование в информационном обществе. Юрайт.
9. Спичкин, А. (2020). Дошкольное медиаобразование: Теория и практика. Российская Академия Образования.
10. Байкова, Л. В. (2019). Современные технологии в дошкольном образовании. Академия.